



ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW

journal homepage:

<https://www.supportscience.uz/index.php/ujhpl>

THE INFLUENCE OF NATIONAL IDENTITY AWARENESS AND HISTORICAL MEMORY ON THE TRANSFORMATION OF SOCIAL MENTALITY

Guljakhon Suyarkulova

Lecturer

Fergana State University

guljaxonzokirovna@gmail.com

Fergana, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: social mentality, transformation, social consciousness, national values, historical memory, social development, information and communication technologies, civic culture.

Received: 25.06.26

Accepted: 26.06.26

Published: 27.06.26

Abstract: This article analyzes the concept of social mentality and its role in the development of society from a socio-philosophical perspective. The study examines the main factors influencing the transformation of social mentality, including socio-economic, political-legal, spiritual-educational, information-communication, and historical-cultural factors. It is argued that the harmonious combination of national values, historical memory, and modern reforms plays an important role in the renewal of social mentality.

MILLIY O'ZLIKNI ANGLASH VA TARIXIY XOTIRANING IJTIMOYIY MENTALITET O'ZGARISHIGA TA'SIRI

Guljaxon Suyarkulova

O'qituvchi

Farg'ona davlat universiteti,

guljaxonzokirovna@gmail.com

Farg'ona, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: ijtimoiy mentalitet, transformatsiya, ijtimoiy ong, milliy qadriyatlar, tarixiy xotira, ijtimoiy taraqqiyot, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, fuqarolik madaniyati.

Annotatsiya: Mazkur maqolada ijtimoiy mentalitet tushunchasi va uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilingan. Ijtimoiy mentalitetning shakllanishi va transformatsiyasiga ta'sir etuvchi asosiy omillar – ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-ma'rifiy, axborot-

kommunikatsiya hamda tarixiy-madaniy omillar o'rganilgan. Shuningdek, milliy qadriyatlar, tarixiy xotira va zamonaviy islohotlar o'rtasidagi uyg'unlik ijtimoiy mentalitetni yangilashda muhim ahamiyat kasb etishi asoslab berilgan.

ВЛИЯНИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО САМОСОЗНАНИЯ И ИСТОРИЧЕСКОЙ ПАМЯТИ НА ИЗМЕНЕНИЕ ОБЩЕСТВЕННОГО МЕНТАЛИТЕТА

Гулжахон Суяркулова

Преподаватель

Ферганский государственный университет

guljaxonzokirovna@gmail.com

Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: социальный менталитет, трансформация, общественное сознание, национальные ценности, историческая память, социальное развитие, информационно-коммуникационные технологии, гражданская культура.

Аннотация: В данной статье социальный менталитет рассматривается как сложный духовно-социальный феномен и анализируется его роль в развитии общества. Особое внимание уделяется факторам, влияющим на трансформацию социального менталитета, таким как социально-экономические, политико-правовые, духовно-просветительские, информационно-коммуникационные и историко-культурные факторы. Обосновывается, что гармоничное сочетание национальных ценностей, исторической памяти и современных реформ играет важную роль в обновлении социального менталитета.

Kirish. Ijtimoiy mentalitet jamiyat a'zolarining dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi, xulq-atvori va ijtimoiy munosabatlarga bo'lgan umumiy munosabatini ifodalovchi murakkab ma'naviy-ijtimoiy fenomen hisoblanadi. U tarixiy jihatdan shakllangan bo'lib, jamiyat taraqqiyoti jarayonida turli omillar ta'sirida o'zgarib va yangilanib boradi. Shu bois ijtimoiy mentalitetning transformatsiyasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni ilmiy asosda tahlil qilish zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy-iqtisodiy omillar ijtimoiy mentalitet o'zgarishining asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiy munosabatlarning modernizatsiya qilinishi, mehnat bozorida o'zgarishlar, aholi daromadlari va turmush sifatidagi farqlar insonlarning hayotga bo'lgan munosabatini qayta shakllantiradi. Iqtisodiy barqarorlik va

imkoniyatlar kengayishi ijtimoiy faollik, tashabbuskorlik va mas'uliyat hissining kuchayishiga olib keladi.

Ikkinchidan, siyosiy-huquqiy omillar ijtimoiy mentalitetga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Davlat boshqaruvida ochiqlik va qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarning siyosiy jarayonlarda ishtirok etish imkoniyatlarining ortishi siyosiy ong va fuqarolik madaniyati rivojiga xizmat qiladi. Bu esa ijtimoiy mentalitetda passivlikdan faollikka, befarqlikdan mas'uliyatli pozitsiyaga o'tish jarayonini jadallashtiradi.

Uchinchidan, ma'naviy-ma'rifiy omillar ijtimoiy mentalitet transformatsiyasida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ta'lim-tarbiya tizimi, ommaviy axborot vositalari, madaniyat va ma'naviyat institutlari jamiyat a'zolarining dunyoqarashi va qadriyatlar tizimini shakllantiradi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi asosida ma'naviy muhitning yangilanishi ijtimoiy mentalitetning sifat jihatdan o'zgarishiga zamin yaratadi.

To'rtinchidan, axborot-kommunikatsiya omillari zamonaviy jamiyatda ijtimoiy mentalitetga ta'sir etuvchi muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Raqamli texnologiyalar, internet va ijtimoiy tarmoqlar insonlarning axborot olish, fikr bildirish va ijtimoiy muloqot qilish usullarini tubdan o'zgartirmoqda. Bu holat ijtimoiy ongda ochiqlik, tezkorlik va global tafakkur elementlarining kuchayishiga sabab bo'lmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Milliy o'zlikni anglash va tarixiy xotiraning ijtimoiy mentalitet o'zgarishiga ta'siri masalalarini tahlil qilishda Achildiev A.S. [1], Mirziyoyev Sh.M. [2, 5], Zakirov Sh.M. [3], Abdullajonova D. [4], Turg'unboev F. [6] kabi olimlarning asarlaridan unumli foydalanildi.

Muammoni o'rganishda umumiy o'zaro aloqadorlik, tarixiylik, tizimlilik tamoyillari, umumlashtirish usullari qo'llanilgan.

Natijalar va muhokama. Tarixiy-madaniy omillar ijtimoiy mentalitetning barqaror va davomiy jihatlarini belgilab beradi. Milliy an'analar, urf-odatlar, tarixiy xotira va ma'naviy meros ijtimoiy mentalitetning o'zagini tashkil etadi. Zamonaviy islohotlar jarayonida ushbu omillarni inkor etmasdan, balki ularni yangi ijtimoiy sharoitlarga moslashtirish ijtimoiy mentalitetning uyg'un rivojini ta'minlaydi. Shu ma'noda, ijtimoiy mentalitetning o'zgarishi ko'p omilli va dialektik jarayon bo'lib, u ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-ma'rifiy, axborot-kommunikatsiya va tarixiy-madaniy omillar o'zaro ta'siri natijasida shakllanadi. Ushbu omillarni chuqur tahlil qilish jamiyat taraqqiyotining ma'naviy asoslarini mustahkamlash va zamonaviy ijtimoiy mentalitetni qaror toptirishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy mentalitetning o'zgarishida milliy o'zlikni anglashning yana bir muhim jihati – tarixiy xotira bilan bog'liqdir. O'tmish tajribasini tanqidiy va xolis baholash, tarixiy saboqlardan

xulosa chiqarish jamiyat tafakkurida uzluksizlik va vorisiylikni ta'minlaydi. Bu esa milliy iftixor va fuqarolik ongining uyg'un rivojlanishiga xizmat qilib, ijtimoiy mentalitetda barqarorlik va ochiqlikni mustahkamlaydi.

Shuningdek, milliy o'zlikni anglash ijtimoiy mentalitetning globallasuv sharoitidagi moslashuvchanligini ta'minlaydi. Zamonaviy dunyoda turli madaniyatlar o'zaro ta'sirga kirishar ekan, milliy o'zlikni ongli ravishda anglagan jamiyat tashqi ta'sirlarga nisbatan tanqidiy munosabatni shakllantiradi. Bu holat milliy qadriyatlarni asragan holda innovatsion tafakkur va ochiq dunyoqarashni rivojlantirishga imkon yaratadi.

Milliy o'zlikni anglash ijtimoiy mentalitetda ijtimoiy birdamlik va hamjihatlikni kuchaytiruvchi omil sifatida ham namoyon bo'ladi. U jamiyat a'zolari o'rtasida umumiy maqsadlar va umummilliy manfaatlar atrofida birlashish hissini mustahkamlab, ijtimoiy mas'uliyat va fuqarolik pozitsiyasining yuksalishiga xizmat qiladi. Bu esa jamiyat taraqqiyotining barqaror va uyg'un yo'nalishini ta'minlaydi. Demak, milliy o'zlikni anglash ijtimoiy mentalitetning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri bo'lib, u jamiyat tafakkurida ma'naviy yangilanish, fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytirish orqali Yangi O'zbekistonda zamonaviy, ochiq va barqaror ijtimoiy mentalitetni shakllantirishga xizmat qiladi.

Milliy o'zlikni anglash ijtimoiy rivojlanishning ob'ektiv sharoitlarida shakllanadi va rivojlanadi. Vatanga sadoqat milliy o'zlikni anglashning shakllanishi va rivojlanishi uchun muayyan zamin yaratadi va u ijtimoiy mentalitetda o'z ifodasini topadi. Hududiy birlik millat milliy o'zligining shakllanishi va rivojlanishi omili sifatida, yana shu bilan ham muhimki, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotning markazlashuvi aynan muayyan hududda yuz beradi.

Hozirgi davrda o'zbek xalqi rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, uning ma'naviy faolligi milliy uyg'onish yo'llarini izlash, milliy o'zlikni anglashni rivojlantirish va takomillashtirishning bosh omiliga aylangan va ular o'z xalqi tarixini, uning madaniyati va ma'naviyatini chuqur bilish va tushunishga asoslangan taqdirdagina qudratli kuchga aylanadi. Milliy o'zlikni anglash, umuman olganda, o'zining mazkur xalqqa mansubligini tushunib yetish, uning boshqa xalqlar orasidagi o'rni va ahamiyati haqida tasavvur hosil qilish demakdir. Respublikada tub ijtimoiy o'zgarishlar yuz berayotgan davrda milliy mafkura g'oyasini mustahkamlash o'zbek xalqining milliy o'zlikni anglash jarayoni bilan uzviydir.

Milliy o'zlikni anglash, ijtimoiy mentalitetning ma'naviy elementi, yangi iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va axloqiy munosabatlarning vujudga kelish omili sifatida, ayniqsa bo'rtib namoyon bo'ladi. Milliy uyg'onishda inson omili rolining faollashuvi ijtimoiy mentalitetni nazariy jihatdan teran va har tomonlama anglab yetishni taqozo qiladi. Shu bilan bir vaqtda, eski tuzumdan qolgan

andozalar va ayrim omillar kishilar ijtimoiy mentalitetida milliy o'zlikni anglashning mohiyati va namoyon bo'lish shakllarini o'rganishga monelik qiladi.

Hozirgi vaqtda sobiq sho'ro davriga xos bo'lgan mafkuraviy bir yoqlamalik, ijtimoiy ongning torligidan ma'naviy qadriyatlarni yanada kengroq tushunishga, umuminsoniy qadriyatlarni, inson huquqlarining ustunligini tan olishga o'tish jarayonlari yuz bermoqda. "Milliy o'zlikni anglash millatlar hamjihatligi, ularning o'zaro munosabatlarining ijtimoiy ongdagi in'ikosidir" [1, 18]. Bunda ijtimoiy ziddiyatlar sirtmog'iga o'ralib qolmaslik, milliy o'zlikni anglashning shakllanishi va rivojlanishiga, olimlarning kayfiyatiga ta'sir ko'rsatuvchi progressiv va salbiy omillarni ajrata bilish muhimdir.

Hozirgi vaqtda yuz berayotgan jarayonlarning asl mohiyatini teran anglab yetish oson ish emas. Yaqin o'tmishda ma'muriy-buyruqbozlik tizimi millatning ma'naviy hayotini o'z hukmi ostiga oldi. Milliy qadriyatlar kommunistik mafkura asosida yaratilgan yagona andozaga solindi. Har bir inson kabi, har bir millat ham o'zining betakrorligi va o'ziga xosligi bilan go'zaldir, degan oddiy haqiqat unutildi. Ayni shu sababli 1985 yilda boshlangan qayta qurishni xalq yo'qolgan umidlarning qaytishi sifatida baholadi. Bu jarayon odamlarning milliy o'zlikni anglashi, ijtimoiy mentaliteti misli ko'rilmagan darajada kuchayishiga olib keldi. Milliy o'zlikni anglash, ijtimoiy mentalitetning o'sishi – progressiv hodisa, milliy istiqloqlarning muhim yutug'i, davlatimizning insonparvarlashuv va demokratiyalashuv yo'lidagi kelgusi qadamlarini belgilovchi muhim omildir.

Tabiiyki, milliy o'zlikni anglashning o'sishi bilan har bir kishining o'z negizlariga bo'lgan qiziqishi ham kuchayib boradi. Ayni shu sababli milliy o'zlikni anglashning o'sishi ochiq va oshkora o'zaro aloqalarni nafaqat istisno qilmaydi, balki taqozo etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev ta'kidlaganidek: "Bizning maqsadimiz – yurtimizda xalq hokimiyatini nomiga emas, balki amalda joriy qilish mexanizmlarini mustahkamlashdan iborat" [2, 245].

Ijtimoiy mentalitetning shakllanishida milliy o'zlikni anglashning rolini talqin qilish sohasida to'plangan muammolarning murakkabligiga xolisona baho bergan holda quyidagi vazifalarni qayd etish mumkin:

Birinchi – jamiyat tubdan yangilanayotgan sharoitlarda milliy o'zlikni anglashning o'sishi zarur. Bunga erishish uchun davlat: a) o'z yaxlitligi va uzviyligini demokratik yo'llar bilan, ya'ni turli xil, ba'zan qarama-qarshi manfaatlarni e'tibordan soqit etish orqali emas, balki ularni demokratik usulda muvofiqlashtirish orqali ta'minlashi; b) yuz berishi mumkin bo'lgan konfliktlarni demokratik yo'llar bilan samarali yechish uchun odamlarning manfaatlarini muvofiqlashtirish davlat huquqiy mexanizmini yaratishi lozim.

Ikkinchidan – turg'unlik yillarida to'plangan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni boshqaruvni markazlashtirish va sun'iy "jadallashtirish" yo'li bilan emas, balki bundan har bir odamning manfaatdorligini ta'minlash orqali hal qilish kerak. Bosh vazifalardan biri – kishilarning mustaqilligi uchun yanada kengroq sharoitlar yaratish, ular o'z ilmiy faoliyatining pirovard natijalarini yaxshilashdan jamiyatning farovonligi asosi sifatida manfaatdor bo'lishlarini ta'minlashdir.

Shuni qayd etish lozimki, milliy o'zlikni anglash va mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi o'sishi sharoitlarida ma'naviy faoliyatning cheklanishi jamiyat hayotidagi demokratik jarayonlarning faollik darajasi pasayishiga olib keladi. Ayni holda davlatning umumiy siyosati har bir insonning moddiy va ma'naviy ehtiyojlari qondirilishini ta'minlash zaruriyatidan kelib chiqishi lozim.

Ijtimoiy mentalitet, avvalambor, tom ma'nodagi milliylikdan – faqat u to'plagan tajriba orqali vujudga keladi. Bu juda muhim va murakkab jarayonni e'tiborga olmaslik milliy mahdudlikka, o'z ijtimoiy - siyosiy va ma'naviy qobig'iga o'ralishga sabab bo'ladi, qolaversa, u rivojlanishning kuchaygan ehtiyojlarini qondiruvchi yangi jarayonlar va hodisalarning sintezi asosida shakllanadi. Milliy o'zlikni anglashning shakllanishi va amal qilishining asosi sifatida millatning moddiy va ma'naviy ehtiyojlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan xalqning milliy manfaatlari amal qiladi. Yuqorida aytilganlardan kelib chiqib ijtimoiy mentalitetning muhim omili sifatidagi milliy o'zlikni anglashning aktuallashuvi uning o'sishidan dalolat beruvchi bosh elementlarini ajratish mumkin: 1) davlat suvereniteti g'oyasi; 2) til omilining faollashuvi; 3) milliy madaniyatning uyg'onishi, tarixiy merosning, unutilgan ismlar, an'analar, kasb-korlarning tiklanishi; 4) xo'jalik hayotining qayta anglab yetilishi.

Individium darajasida milliy o'zlikni anglash, milliy o'ziga xoslik sub'ektiv darajada butun ijtimoiy borliq kabi idrok etiladi. Bu amalda "milliy o'zlikni anglash shaxs darajasida qon belgisiga ko'ra" amalga oshirilishini anglatadi [3, 117]. Shuni qayd etish lozimki, shaxsning ijtimoiy mentaliteti shaxs darajasida milliy o'zlikni anglashning tarkibiy elementlaridan biri hisoblanadi. sivilizatsiyaning yaxlitlik darajasi ortib borayotgan sharoitlarda "sof" milliy o'zlikni anglash o'z-o'zicha mavjud bo'lishi mumkin emas. Boshqa jarayonlar kabi, shaxsning milliy o'zlikni anglashi ham mahdudlik sharoitida rivojlana olmaydi, uning milliy o'zlikni anglashining o'sishi o'zining madaniy merosini yanada chuqurroq bilish va uni xalq mulkiga aylantirish uchun o'z ma'naviy ildizlariga yanada teranroq nazar tashlashga intilishiga imkoniyat yaratadi.

Mazkur jarayonda milliylikning rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratish, insonlar o'z madaniy merosini o'zlashtirishiga monelik qilmaslik lozimligini e'tiborga olish zarur. Ushbu jarayon millatchilikning bir ko'rinishi sifatida baholanishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Turli

millatlarning moddiy va ma'naviy qadriyatlarni ayirboshlash erkin va demokratik shakllari doirasini kengaytirish muhimdir. Binobarin, D.Abdullajonova ta'kidlaganidek, "Tarixiy taraqqiyot natijasida milliy o'zlikni anglashning roli ortadi. U millatning ma'naviy uyg'onishi jarayonida yuz beradi. Bunda inson faqat o'zi uchungina emas, balki o'z xalqi va boshqa xalqlar uchun ham xizmat qiladi, shu tariqa u o'z xalqining hayotini, shu jumladan, uning milliy qadriyatlarini umuminsoniy sivilizatsiya bilan birlashtiradi [4, 16].

Ijtimoiy mentalitet insonning ma'naviy uyg'onishi ifodasi sifatida biz yashayotgan davrga xos va davlat tomonidan, aql va irodaning kuch-qudratini tarixiy madh etish bilangina emas, balki uning ijodi va shaxsiyatini tom ma'noda ozodlikka chiqarish harakatlari bilan ham qo'llab-quvvatlanishi lozim. Milliy o'zlikni anglash va ijtimoiy mentalitetning mazmun va mohiyati har bir insonning, o'z qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish, umuminsoniy madaniyatning oliy yutuqlarini o'zlashtirish orqali o'zini o'zi kamol toptirish uchun zaruriy va yetarli imkoniyatga ega bo'lish bilan belgilanadi.

Bugungi kunda ijtimoiy mentalitet va milliy o'zlikni anglashning rivoji uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Bunda har qanday ijobiy omil faqat salbiy omilning nisbati sifatidagina mavjud bo'lishini unutmaslik kerak. Milliy o'zlikni anglash o'zining betakrorligi va o'ziga xosligini himoya qilar ekan, agar u millatchilikni ozgina bo'lsa ham himoya qilsa va unda o'zining salbiy ziddini ko'rmasa, amalda rivojlana olmaydi. Yangi milliy tuzilmalarning vujudga kelishi bilan hisoblashishni istamaydigan kuchlar ham, milliy omillarni targ'ib qiluvchi, boshqa xalqlar bilan iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarni uzuvchi kuchlar ham teng darajada xavflidir. Shaxsda milliy o'zlikni anglash hissining shakllanishi va rivojlanishi ob'ektiv jarayon bo'lib, u sirdan ta'sirlarga bo'ysunmaydi. Prezident Sh.Mirziyoev ta'biri bilan aytganda, «O'zining buyuk tarixi va ajdodlariga munosib voris bo'lgan xalqimiz mamlakat xavfsizligini ta'minlashga qodir armiyani yarata oladi [5, 217]. Demak, bizning fikrimizcha, ijtimoiy mentalitet o'zini o'zi tartibga soluvchi mexanizm sifatida amal qilishi ikki darajada rivojlanishi mumkin: birinchi – milliy birlikning o'zgarayotgan vaziyatga moslashuvini nazarda tutuvchi moslashish darajasida; ikkinchi – milliy tuzilmalar faoliyatining u yoki bu jihatlari faol tus olishidan iborat bo'lgan moslashish darajasida.

Tarixiy jarayon – deyarli har doim ijtimoiy guruhlar faoliyatining mahsulidir. Inson ayni shunday birlikning tarkibiy qismi hisoblanadi. Individual harakatlardan ommaviy harakatlarga o'tish yo'llarini topish, individuallikni ijtimoiylik bilan bog'lash usulini yaratish fanning muhim vazifasidir. F.Turg'unboev ta'kidlaganidek, "inson faoliyati tarkibiy tuzilishining umumiy formulasi maqsad, vosita, jarayon va natijani o'z ichiga oladi. Maqsad faoliyatga turtki beradi va ayni vaqtda ideal motivlar, qadriyatlar va ideallar sifatida amal qiluvchi o'z asoslariga ega bo'ladi"

[6, 26]. Ular butun insoniyat tarixida mavjud bo'lgan, lekin konkret tarixiy mazmun bilan tavsiflanadigan tarixan o'tkinchi va konkret doimiy tuzilmalardan iboratdir. Shunday omillardan biri kishilarning ijtimoiy birlik taqdirini belgilovchi faoliyatining asosi hisoblanadigan vatanparvarlikdir.

Xulosa. Milliy o'zlikni anglash va tarixiy xotira inson hamda jamoa ongidagi qadriyatlar tizimiga chuqur ta'sir qiladi. Yangi O'zbekistonda avlodlar ongidagi tarixiy va madaniy merosni anglash jarayoni ijtimoiy mentalitetda barqarorlik, madaniy identifikatsiya va milliy tafakkurni rivojlantirishning asosiy mexanizmi sifatida xizmat qiladi. Tarixiy xotira va milliy o'zlikni anglashning dialektik asoslari shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy mentalitet transformatsiyasi ham tarixiy tajribaga suyangan holda, ham zamonaviy jarayonlarga moslashuvni talab qiladi. Bu jarayonda fuqarolarning individual va kollektiv ongida madaniy qadriyatlar, urf-odatlar va milliy identifikatsiyani integratsiya qilish muhim ahamiyatga ega.

Yangi O'zbekistonning ijtimoiy mentalitetida an'anaviylik (urf-odatlar, qadriyatlar merosi) va zamonaviylik (innovatsiya, globallashtirish va raqamlashuv jarayonlari)ni uyg'unlashtirish jarayoni madaniy va ijtimoiy transformatsiyaning markaziy vazifasi sifatida qaraladi. Bu integratsiya fuqarolik ongi, ijtimoiy mas'uliyat va madaniy identifikatsiyani muvozanatlashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ачилдиев А.С. Диалектика национального самосознания и национальной культуры. - Тошкент: Маънавият, 1997. - Б.18.
2. Mirziyoev Sh.M. Inson manfaatlarini ta'minlash –demokratik jamiyat asosidir// Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. - Toshkent, O'zbekiston. 2018. - B.245.
3. Закиров Ш.М. Национальная независимость и национальное самосознание. // Мустақил Ўзбекистон фалсафа фанининг долзарб муаммолари. - Тошкент, Фан, 1998. - Б.117.
4. Abdullajonova D. Milliy tarixiy xotiraning mohiyati va rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari. (ijtimoiy-falsafiy tahlil). Fals.fan. nomz. diss avtoref. - Toshkent: O'zMU, 2006. - B.16.
5. Mirziyoev Sh.M. Qurolli kuchlar – vatanimiz va xalqimizning mustahkam qo'rg'oni. //Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz -Toshkent, "O'zbekiston", 2017. - B.217.

6. Turg'unboev F. Mehnat mentaliteti – o'zini o'zi boshqarishning muhim omili// Demokratiyalashuv sharoitida shaxslarning sotsiallasuv jarayoni muammolari. Resp. ilmiy amaliy konferensiyasi materiallari. - Farg'ona: Farg'ona nashriyoti, 2004. - B.26.